
KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH BORASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR YUZASIDAN BRIFING O'TKAZILADI



24 yanvar kuni, soat 14:00 da Quvasoy shahar hokimligi majlislar zalida korruptsiyaga qarshi kurashish borasida shaharda olib borilayotgan ishlar (tadbirlar), shuningdek, "Ochiq, shaffof va hisobdor hudud" loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar hamda ularning natijadorligi yuzasidan brifing o'tkaziladi.

Farg'ona viloyati ichki ishlar boshqarmasi, xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati vakillari hamda shahar faollari ishtirok etishi kutilayotgan brifingda korruptsiyaga qarshi kurashish borasida vakolatli organ rahbarlari tomonidan axborot berilishi nazarda tutilgan.

Brifing ochiq tarzda o'tkaziladi va unda ommaviy axborot vositalari vakillari ham ishtirok etishi mumkin.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-01-23 10:11:10